

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15003620>

SHIFOKOR VA BEMOR MUNOSABATLARIDA TIBBIY GUMANISTIKANING AHAMIYATI

Umirzakova Nargiza Akmalovna

TDSI Ijtimoiy fanlar bioetika kursi bilan kafedrasi dotsenti

n.a.umirzakova@mail.ru

Annotatsiya: Yetuk shifokor mutaxassisni shakllantirishda va shifokor va bemor munosabatlarida tibbiy gumanistika nihoyatda zaruriy tamoyil sanaladi. Shifokor kasbi INSON - INSON tizimi doirasidagi munosabatlardan tashkil topgan bo'lib, bunda insonni shunchaki tirik organizm sifatida qarash bilan cheklanish o'ta noto'g'ri bo'ladi. Bilamizki, inson tana va ruh birligidan tashkil topgan hilqat. Shifokor bemorning dardini topishi va davolashi uchun avvalo uning ruhiyatini his etishi va tushunishi lozim. Buning uchun shifokor va bemor munosabatlarida tibbiy gumanistika asoslangan munosabatlarni shakllantirish lozim.

Kalit so'zlar: Diagnostika, tibbiy gumanistika, differensial diagnostika, kasallik, zamonaviy tibbiyot, shifokor, ijtimoiy va axloqiy mas'uliyat.

Аннотация. Медицинский гуманизм является крайне необходимым принципом в формировании зрелого медицинского специалиста и во взаимоотношениях врача и пациента. Профессия врача складывается из взаимоотношений в системе ЧЕЛОВЕК-ЧЕЛОВЕК, и было бы неправильно рассматривать человека только как живой организм. Мы знаем, что человек состоит из единства тела и души. Чтобы выявить болезнь и вылечить боль пациента, врач должен сначала почувствовать и понять душу пациента. Для этого необходимо сформировать отношения, основанные на медицинском гуманизме во взаимоотношениях врача и пациента.

Ключевые слова: Диагностика, медицинские гуманистические науки, дифференциальный диагноз, болезнь, современная медицина, врач, социальная и моральная ответственность.

Kirish.

Yetuk shifokor deganda jismonan, ma'nan, aqlan, ruhan, sog'lom turmush tarziga, tozalik, sanitariya, gigiyena qoidalariga amal qiladigan inson ko'z oldimizga keladi. Tibbiy gumanistika, tibbiyat va insoniy bilimlarni birlashtiruvchi soha sifatida, yetuk shifokor mutaxassislarni shakllantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Bu yo'naliш, shifokorlarning nafaqat professional ko'nikmalarni, balki insoniy jihatlarni ham rivojlantirishga yordam beradi [1].

Tibbiy gumanistika shifokorning bevosita klinik faoliyatida, xususan, diagnoz qo'yish jarayonida asosiy rol o'ynaydi. U quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi:

1. Differensial diagnostika - bemorlarning shikoyatlarini va tibbiy tarixini tahlil qilish orqali mumkin bo'lgan kasallikkarni aniqlash va ularni ajratish.
2. Klinik tahlil va gumanistik yondashuv - bemorlarning holatini to'liq baholash, laboratoriya va instrumental tekshiruvlar natijalarini o'rGANISH orqali qo'shimcha ma'lumotlar yig'ish.
3. GUMON yordamida qarorlar qabul qilish - gumonlar orqali kasallikkarni tasavvur qilib, muqobil imkoniyatlarni tekshirish, bu esa to'g'ri va tezkor qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Yetuk shifokor mutaxassisining shakllanishi jarayonida tibbiy gumanistika o'qitish va amaliyotdagi faoliyatini samarali tarzda ta'minlaydi [3]. Bu jarayon quyidagi jihatlardan iborat:

1. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish - tibbiy gumanistika shifokorning tanqidiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa uning klinik qarorlar qabul qilishida yanada ishonchli va ehtiyyotkor bo'lishiga olib keladi.
2. Insoniy yondashuv - gumanistik fikrlash bemor bilan samarali muloqot qilish, uning holatini yaxshiroq tushunish va unga mos ravishda davolashni ta'minlashga yordam beradi.
3. Murakkab kasallikkarni tashxislashda yordam - yangi, murakkab yoki o'ziga xos kasallikkarni aniqlashda tibbiy gumanistika shifokorning samarali va to'g'ri taxminlar qilishiga yordam beradi [2].

4. Ijodkorlikni rivojlantirish - gumanistikaning rivojlanishi shifokorlarni an'anaviy bo'lмаган va innovatsion yondashuvlar bilan tanishtiradi, bu esa o'z navbatida ularning diagnostik va terapeutik yondoshuvlarini tibbiy gumanistika bilan uyg'unlashtirish shifokorlarning zamonaviy tibbiyat tizimida yuqori malakali mutaxassis sifatida rivojlanishiga yordam beradi. Uning quyidagi asosiy afzalliliklari mavjud:

1. Ma'lumotlarga asoslangan qarorlar - tibbiy gumanistika shifokorlarning har bir bemorni yaxshiroq tushunishiga va uning holatiga mos ravishda aniq va to'g'ri qarorlar qabul qilishiga yordam beradi.
2. Bemorlarni to'liq baholash - shifokorlarning gumanistik yondashuvi bemorlarning simptomlari va holatini to'liq baholash imkonini beradi, bu esa diagnostik jarayonni aniq va ishonchli qiladi [2].
3. Xatoliklarni kamaytirish - tibbiy gumanistika xatoliklarni kamaytirish va ularni oldini olishda yordam beradi, chunki u shifokorning o'z fikrini qayta ko'rib chiqish, qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish va natijalarni tahlil qilishga undaydi [4].

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkunki, tibbiy gumanistika shifokor mutaxassisining professional shakllanishida markaziy o'rinni tutadi. Uning yordamida shifokorlar tibbiy bilim va tajribalarni qo'llashda yanada aniqroq, tizimli va ehtiyyotkorlik bilan yondashadilar. Shuningdek, tibbiy gumanistika, shifokorning ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatini oshiradi, uning bemorlarga nisbatan insoniy yondashuvini kuchaytiradi va shifokor sifatida muvaffaqiyatli bo'lishga yo'naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хальфин Р. А., Сырцова Д. П., Львова Е. Е., Кобяцкая Е. Е. /
Пациентоориентированный подход: базовые понятия. Журнал.
«Проблема стандартизации в здравоохранении». - 2017.
2. Умирзакова Н.А. Axiological function of bioethics in the context of optimization of medical education / Фалсафа ва хаёт”// Халқаро илмий журнал.- 2023. №4 (23). - Б.24-30.
3. Умирзакова Н.А. Биоэтика фанининг интегративлик хусусиятлари /
Фалсафа ва хаёт”// Халқаро илмий журнал.- 2024. №1 (24). - Б.42-48.